

INSONLARDAGI AYRIM FAZILAT VA NUQSONLARNING “DEVONU LUG`ATI-T- TURK”DA AKS ETISHI

D.A. Begmatova

TIPI, Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasи o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahonning buyuk lug‘atshunosi va olimi bo‘lgan Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asaridagi qo‘llangan maqollari hozirgi kunda ham, o‘z qiymatini, tarbiyaviy-ma‘rifiy ahamiyatini yo‘qotmaganligini, ko‘p yillik tarixi, qadimda insonlarning turmush tarzi, nuqson va fazilatlari, maishiy hayotini o‘zida aks etgan maqollar xususida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiy xalqlar, maqollar, dangasalik, botir, fazilat, nuqson, aql, tirishqoqlik. «Devonu lug‘otit-turk» («Turkiy so‘zlar devoni») — Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda 11-asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. «Devonu lug‘otit-turk»ning qo‘lyozmasi 1914 y. Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa «Devonu lug‘otit-turk» yozilganidan salkam 200 yil keyin, ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan 1266 yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘at-t-turk” asaridagi maqollar mazmun-mohiyat jihatidan keng ko‘lamni o‘z ichiga oladi. Maqollarda jamiyat hayoti va insoniy munosabatlar, ijtimoiy hukmlar, axloqiy me`zonlar haqidagi muhim ma‘lumotlar yoritiladi. Turkiy xalqlar hayoti, turmush tarzi maqol va she`riy parchalar misolida ko`rsatiladi.

Insonlardagi ayrim fazilat va nuqsonlarni devonda keltirilgan maqollar misolida tahlil qilish mumkin.

Ermägükä ešik art bolur – yalqovga eshik ostonasi ham tog` tepasidek ko`rinadi. (31b) Dangasa, ishyoqmas kimsaga, har nasra yumushni bajarmaslikka bahona bo`lishi mumkin. Ishdan qochadigan o‘z vazifalariga mas`uliyat bilat qaramaydigan shaxslar nazarda tutilgan. Arzimas narsalarni ham bahona qilib, ishdan qochadi. Bunday kimsalar el orasida obro` topa olmaydi.

Ermägükä bulit/bulut yük bolur - Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo`ladi. (69b) Ushbu maqolda ham dangasa, ishyoqmaslik haqida baxs boradi. Dangasa odamning hech biri ikki bo`lmaydi, nima ishga qo`l urmasin uni oxirigacha bajarmaydi va natijada foyda ko`rmaydi. Yalqov kimsa hatto bulutning soyasini ham o`ziga yuk deb biladi. Shoir insonlardagi nuqsonlar haqida fikr bildirgani kabi fazilatlarini ham sanab o`tgan.

Erig irini yağlığ, ermägü başı qanlığ - Tirishqoqning labi yog'li, erinchoqning boshi qonli.(41b) Hayotda mehnatkash, ishbilarmon odamlar ko`pgina yutuq va g`alabalarga erishadi. Harakat qilgan kam bo`lmaydi.Tirishqoq insonning ishi ham, so`zi ham natijali bo`ladi. Shuningdek o`ziga va boshqalarga manfaat keltiradi.Ammo buning aksi bo`lgan erinchoqlik odam boshiga kulfat olib keladi.

Insonlardagi yana bir yaxshi xislatlardan biri botirlikdir. Ushbu fazilat haqida asarda quyidagi maqol keltirilgan.

Alp yağında, alčaq čögida - Botir yov bilan to‘nashganda(olishganda) yuvosh tirishishda sinaladi.(31b) Jasur inson dushman bilash kurashganda o`z kuchi bilan g`alaba qozonadi. Nomard jang maydonini tashlab qochadi. Og`ir tabiatli, muloyim va yuvosh kishilar tirishqoq hamda sabrli bo`ladi. Mard maydonda sinaladi kabi maqol hozirgi kunda ham xalq orasida keng qo`llanadi. Bundan ko`rinib turibdiki asardagi maqollar o`z qiymatini saqlab kelmoqda. Alp čerigdä, bilgä tirigdä Botir jang alangasida (sinaladi), dono majlisda sinaladi (156b) Asardagi ushbu maqol ham yuqoridagi kabi botirlik haqidadir. Inson jang qilayotganda qandayligi bilinadi.Aqli, ilmli insonlar esa suhbat chog`ida seziladi. Gapirayotgan gaplaridan, fikr- mulohazalaridan dunyoqarashi qay darajada keng ekanligi ko`rinadi.

Tüzün birlä uruš, utun birlä üstärma Yuvvosh odam bilan urush chunki sen uni bosishing mumkin, uyatsiz yuzsiz odam bilan urushma u seni sharmanda qiladi (98b) Ushbu maqolda ham kansuqumlik, andishalilik kabi xislatlar ulug`lanadi. Agar urushadigan bo`lsang yuvosh odam bilan urush u andisha qilib sen bilan bahslashmaydi. Lekin uyatsiz kimsa bilan tortishadigan bo`lsang seni sharmanda qiladi chunki u yuzsiz va odobsiz bo`ladi.

Oradan deyarli ming yil o‘tgan bo‘lishiga qaramay, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida uchrab, kundalik turmushda ko‘p qo‘llaniladigan ko‘plab maqollarning o‘zbek tilida deyarli qanday bo‘lsa, shunday ko‘rinishda saqlanib qolgani olqishlarga arzigulik. To‘g‘ri, ayrim maqollar bugun kundalik turmushda qo‘llanilmasligi yoki ularning o‘rnida boshqa ko`rinishlari ishlatilayotgan hollari uchraydi. Shunga qaramay “Devon”da keltirilgan bir qancha maqollar bugungacha yetib kelgangani turkiy tillarning, ayniqsa, o‘zbek tilining qanchalik kuchga, teran ildizga ega til ekanini ko‘rsatadi. Ming yillardan beri turli tillarda so‘zlashuvchi el-uluslar bilan qo‘sni yoki aralash yashab, ularning turmush tarzidan ko`plab maqollar o‘zlashtirganiga qaramay o‘zbek tilining “Devon”dagi so‘zlarni eng ko‘p saqlagan turkiy tillardan biri o‘laroq bilinishi o‘z-o‘zidan bo‘lmay, bu tutum ming yillar kesimida elimizdan Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari adabiyot jonkuyarlari chiqqanligi va chiqayotganligi bilan ochiqlanadi.

Adabiyotlar:

1. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘ati- turk”. Qosimjon Sodiqov nashri. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017
2. Xudoyberdiyev J. M.Qoshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatgichi, –T.: Akademnashr, 2011.
3. “Devonu lug‘atit turk” indeks-lug‘at. Toshkent: Fan, 1967.